

# MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**Avazbek O'ktamov,**  
Musiq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
**Sunnatulla Raimjonov,**  
JDPI musiqa talimi kafedrası  
katta o'qituvchisi,

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, ya'ni yoshlarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalash kabi bilimlarni olish muammolarini yoritishga, musiqa madaniyati darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlariga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlari:** Multimedia, CD-Rom, Drive, televizion tasvir, animatsiya, grafika, DVD va mp3, Power Poit, PhStori, Photoshop, Movie Maker, NERO, operalar, musiqiy filmlar, mumtoz va ommabop musiqa konsertlari

## K I R I S H

Jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri o'zida ma'naviy boylilikni, ahloqiy poklik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirishdir. Ana shu tarixiy vazifani hal qilishning asosiy omili murakkab va ko'p qirrali tarbiya tizimidan iboratdir. Mazkur tizimda yosh avlodni musiqa ta'limi orqali tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta'limi yosh avlodning milliy va ma'naviy, ahloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Zero, musiqa madaniyati o'quv predmeti yoshlarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, har bir halq yuksak ahloqiy va estetik ideallarning yaratuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Shunday ekan musiqa ta'limining yangi

prinsiplarini dars usullarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqish lozim.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha **5 ta muhim tashabbusning** birinchisi yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, este'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilsa, uchinchi aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilganligi bilan muhimdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning kuch qudrati bo'lmish barkamol shaxs, komil insonni har tomonlama yetuk qilib tayyorlash uchun faqatgina musiqa fani bilan emas. Balki hozirgi zamon talabiga asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va albatta mujassamlantirgan holda tarbiyalash zarur. Bu hozirgi davrimiz talabidir. Ilmiy maqolada shu kabi dolzarb muammolarni hal qilish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Musiqa madaniyati darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish musiqani faol qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga, bolalarning musiqiy tajribasini boyitishga, bilimlarni singdirishga yordam beradi. Bu umuman maktab o'quvchilarining musiqiy madaniyatini boyitishning muhim shartidir. Shuning uchun xam musiqiy ta'limda axborot- kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishda quyidagi vazifalar muhim xisoblanadi:

- musiqa darslarida ko'proq o'quvchilarni loyiha faoliyatiga qiziqtirish.
- musiqiy kabinet kutubxonasini kengaytirish.
- yangi kompyuter dasturlarini o'zlashtirish.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o'quvchilar muvaffaqiyatli o'rganish uchun zarur bo'lgan ko'plab tarkibiy qismlar mavjud: Bu televizion tasvir, multimedia, animatsiya, grafika va ovoz. Kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'rgazmali qurollar yetishmovchiligini hal qilishga, an'anaviy o'quv predmetlarini o'zgartirishga, o'quv materiallarini tushunish va o'zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, multimedia vositalaridan foydalanish ham darslarning zamonaviy tilda tashkillashtirishga asos bo'ladi.

Multimedia bir nechta ta'rifga ega:

**Multimedia** - kompyuter apparat ta'minoti (kompyuterda kompakt-disklar o'qish qurilmasi – CD-Rom, Drive, uning yordamida ovozli va videoma'lumotni eshittirishga yordam beradigan ovoz va videoplate, joystick va boshqa maxsus qurilmalarning mavjudligi);

**Multimedia** - bu bir necha ma'lumot taqdim etish vositalarining bir tizimga birlashishi. Odatda multimedia deganda matn, ovoz, grafika, multiplikatsiya, videotasvir va fazoviy modellashtirish kabi ma'lumot taqdim etish vositalarining kompyuter tizimidagi birlashishi tushuniladi. Bunday vositalarning birlashishi ma'lumot qabul qilishning yangi sifatli darajasini ta'minlaydi: inson passiv ravishda mahliyo bo'libgina o'tirmasdan, balki faol ishtirok etadi ham.

Multimedia darsliklari tufayli o'quvchilar sinfda yuqori faollikni (o'z fikrlarini bildirish, mulohaza yuritish, muhokama qilish) amalga oshiradi. Chunki ko'rgazmali tasvirlar musiqani idrok etish uchun, o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning o'ziga xos musiqiy asarlarni "eshitish" ("ko'rish") orqali ularning musiqa va tarix, adabiyot, tasviriy san'atning turli xil turlari, me'morchilik, haykaltaroshlik, badiiy fotosuratlar va boshqalar xaqida tasavvurlarga ega bo'ladi.

O'quvchi texnologik hayotda yashaydi, u kompyuterlar, DVD va mp3 pleerlar, mobil aloqa vositalaridan foydalanib keladi. Zamon bilan hamnafas bo'lish va o'quv jarayonida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish bir qator ta'lim muammolarini hal qilish bilan bir qatorda eng muhimlaridan birini yaxshilashga imkon beradi. Bu o'quvchilarning -motivatsiyasi. Musiqa darslarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsadi ham o'quvchilarning bilim va ijodiy faoliyatini faollashtirishdan iboratdir.

Musiqa darsiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qanday qilib yaxshiroq kiritish va uni o'quvchilar uchun qiziqarli qilish to'g'risida quyidagi mulohazalarni yuritish mumkin:

- o'quvchining darsdagi rolini o'zgartirish kerak: passiv o'quvchidan uni o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish. Bunday holda o'quvchi

va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar sheriklik tomon o'zgaradi va talaba pedagogik ta'sir ob'ektidan o'quv faoliyati sub'ektiga aylanadi.

O'quv dasturida haftada faqat bir soat musiqa darsi nazarda tutilgan, bu ko'p qirrali barkamol shaxsni shakllantirish uchun yetarli emas. Shu munosabat bilan dars samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa darslarida muvaffaqiyatli o'rganish shartlaridan biri, shubhasiz, darslarda ishlatiladigan audio va video materiallarning sifatli, zamonaviy texnik o'quv vositalaridan foydalanish (kompyuter, videomagnitafon, musiqa markazi va boshqalar) kerakli natijaga erishishga imkon beradi. Va, albatta muvaffaqiyatli o'rganishning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri bu o'quvchilarni rag'batlantirishdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan musiqa darslarida foydalanish har qanday yoshdagi o'quvchi uchun o'qitishni yorqin, unutilmas, qiziqarli qiladi va mavzuga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilish orqali zamonaviy kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirish kerak degan xulosaga olib keldi. Maktab ma'muriyat majlislar zaliga (musiqa sinf xonasiga) kerakli asbob-uskunalar (musiqa markazi, proektor, kompyuter, DVD va mp3 pleerlar, mikrofonlar va boshqalar) bilan ta'minlash zarur bo'ladi. Bu esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'quvchilarni musiqa darslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlariga olib keladi.

**Video ketma-ketligi:** operalar, musiqiy filmlar, mumtoz va ommabop musiqa konsertlari, bastakorlarning hayoti va faoliyati haqida badiiy va hujjatli filmlarning parchalari, xalq bayramlarining parchalari.

**Sintezlangan vizual tasvirlar:** bastakorlar, ijrochilar va jahon mumtoz musiqasi, musiqa asarlarini ijro etuvchilarning portretlari.

**Zamonaviy yozuvlar:** tematik rasmlar, musiqiy yozuvlar, musiqiy asarlar qo'lyozmalarining parchalari, tasviriy san'at asarlarining reproduksiyalari (rasm, badiiy hunarmandchilik, haykaltaroshlik, me'morchilik, grafika va boshqalar). Shuningdek, musiqa darslarida materialni boshqa shakllarda taqdim etish xam mumkin: kompyuter dasturlari (PowerPoit, PhStori, Photoshop, Movie Maker, NERO), loyihalar, testlar, tanlangan musiqiy kompakt disklar va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi tezkor davrda yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, ularni o‘z ustida ko‘proq ishlashga jalb etish, ta’lim berish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ko‘proq foydalanish, yoshlarni musiqa, rasm, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, este’dodini yuzaga chiqarish, aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish juda muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016–279 b.
2. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.
3. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog–o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2008.
4. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T. Moliya, 2003-172 b.
5. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.
6. O‘razova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T. TDPU Rizografi, 2014 yil. 6,5 b.t.
7. Nurmatov H. va boshqalar 1-3 sinf “Musiqqa” darsliklari. 2016.
8. Bekmatov S. 6-sinf “Musiqqa” darsligi. 2017.
9. Ibrohimov O. 7-sinf “Musiqqa” darsligi. 2016.
10. Panjiev Q.B., Karimova D. A., Ualiev G.I., “Musiqqa madaniyati” fani o‘qituvchilari uchun O‘UM -T.-2017.
11. Yo‘ldasheva S.X. O‘zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi. Darslik, Toshkent, "O‘qituvchi" nashriyoti, 1985 yil.